

BAHOLASH TIZIMINING TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI

Pardayev Sirojiddin Shokir o'g'li,

Samarqand davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi kafedrasida o'qituvchisi,

Ahmadov Odilbek Alibek o'g'li,

Samarqand davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi kun ta'lim jarayonida baholash mezonining tutgan o'rni va uning ta'lim oluvchi yoshlar psixologiyasiga ko'rsatayotgan ta'siri haqida ma'lumot berib o'tiladi. Shuningdek, har sohada etakchilikni qo'lga olayotgan AKTlar takomillashayotgan zamonaviy muhitni samarali tashkil etish va o'quvchilarni bu jarayonga uzluksiz moslashtirish uchun bahoga qo'yilayotgan talablar qay tarzda bo'lishiga ham to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Baholash tizimi, o'qituvchi, ta'lim, AKT, pedagogika.

ВЛИЯНИЕ СИСТЕМЫ ОЦЕНИВАНИЯ НА КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ

Пардаев Сирожиддин Шокир угли,

преподаватель кафедры узбекского языка и литературы

Самаркандского государственного педагогического института

Ахмадов Одилбек Алибек угли,

студент направления узбекского языка и литературы

Самаркандского государственного педагогического института

Аннотация. В данной статье рассматривается роль критериев оценивания в современном образовательном процессе и их влияние на психологию обучающейся молодёжи. Также уделяется внимание требованиям к оцениванию в

условиях стремительного развития информационно-коммуникационных технологий (ИКТ), которые занимают ведущие позиции во всех сферах, а также вопросам эффективной организации современной образовательной среды и непрерывной адаптации учащихся к этим процессам.

Ключевые слова: система оценивания, учитель, образование, ИКТ, педагогика.

THE IMPACT OF THE ASSESSMENT SYSTEM ON THE QUALITY OF EDUCATION

Pardayev Sirojiddin Shokir o'g'li,

*Lecturer of the Department of Uzbek Language and Literature
Faculty of Languages, Samarkand State Pedagogical Institute*

Ahmadov Odilbek Alibek o'g'li,

*Student of the Uzbek Language and Literature program
Faculty of Languages, Samarkand State Pedagogical Institute*

Abstract. *This article provides information about the role of assessment criteria in the educational process today and its impact on the psychology of young learners. It also discusses the requirements for assessment in order to effectively organize a modern environment where ICTs are taking the lead in every field and continuously adapt students to this process.*

Keywords: *Assessment system, teacher, education, ICT, pedagogy.*

Dunyo yaralibdiki, davrlar osha kishilik jamiyati o'z-o'zini anglab, ijtimoiy muhitda sodir bo'layotgan barcha voqea-hodisalardan o'zlariga tegishli bo'lgan ma'lum bir xulosalarni chiqarishga harakat qilishda davom etib kelishmoqda. Shuningdek, barcha zamonlarda bo'lgani kabi bugungi kunda ham dolzarb bo'lgan masalalardan biri bu kishining o'z "men"ini aniqlashi va uni to'g'ri shakllantirishidir. Va bu jarayon ikki yoki uch yilda emas, balki uzoq yillar davomida hosil qilinadigan xususiyatdir. Xo'sh,

kishining o'z "men"ini shakllantirishida ta'lim-tarbiya jarayonini o'z ichida jamlagan ta'lim dargohlarining o'rni qanday?

Inson paydo bo'libdiki, tarbiya jarayoni mavjud, tarbiya paydo bo'lgan vaqtdan beri pedagogik faoliyat uzluksiz davom etib kelmoqda. O'qituvchilik, tarbiyachilik kasbi barcha ijtimoiy tuzumlarda sharafli hamda o'ta mas'uliyatli, qiyin va murakkab kasb hisoblangan [4.28-bet]. Darhaqiqat, har bir pedagogning mas'uliyatida o'ziga yarasha qiyinchiliklar bo'ladi. Sababi ular Vatanimizning ertasi bo'lgan yoshlarga bilim berish bilan birgalikda, ta'lim-tarbiya ham berishi, ularda yurtga, oilaga bo'lgan muhabbatni, ijtimoiy qatlamga bo'lgan hurmatni shakllantira olish vazifasini ham zimmasiga olishadi. Bu har bir yosh o'quvchining kelajakda qay yo'sinda yo'lini davom ettirishida o'qituvchilarning ham ahamiyati katta ekanligini ko'rsatadi.

Davr hamma zamonlarda ham ta'limning yuqori darajada bo'lishini taqozo qilgan. Barcha rivojlangan mamlakatlarda xalq ta'lim tizimining muvaffaqiyati ushbu sohada psixologik xizmatni har tomonlama to'g'ri va samarali tarzda tatbiq etish bilan bevosita bog'liq ekanligi e'tiborni tortmoqda [2.44-bet]. Yurtimizning barcha hududlariga joriy etilgan raqamli baholash tizimining ta'lim oluvchi yoshlar psixologiyasiga ko'rsatayotgan ta'sirini ham inobatga olib o'tishimiz kerak. "Bilimlarni nazorat qilishda qo'yilgan ball va baholar o'quvchi va talabada qanday taassurotlar qoldirganini, ular o'rtoqlarining o'qishdagi yutuq va kamchiliklariga qanday munosabatda bo'lishlarini doim kuzatib borish lozim. O'quvchi va talabalar bilimni nazorat qilish va baholash o'quv yili davomida muntazam amalga oshirilishi uchun reyting tizimi joriy qilinib, ba'zan, tasodifan tekshirishlarning oldini oladi va tartibli, doimiy baholash uchun imkoniyatlar ochib beradi"[4.99-bet]. Bu tizim bugungi kunda yurtimiz bo'ylab amalda qo'llanayotgan baholash tizimining tashqi ko'rinish shakli hisoblanadi. Ushbu tizim shaffoflik va xolisona baholash tizimini tashkil etishda qo'l keladi, biroq bu usul ta'lim oluvchilar uchun to'laqonli o'z samaradorligini berishda ma'lum bir to'siqlarga duch kelishi tabiiy holat. Quyida raqamli baholash tizimining qo'llanilishi natijasida yuzaga kelayotgan muammolarning ayrimlarini ko'rsatib o'tamiz:

- ta'lim dargohlarida tahsil olayotgan o'quvchi va talabalarda raqamli baholash tizimi bahoga o'rganib qolish moyilligining shakllanishiga sabab bo'lgan;
- o'quvchi va talabalarda bilim uchun emas, baho uchun o'qish g'oyasi yuzaga kelgan;
- ta'lim jarayonining joriy etilishida baholash tizimining rasmiyligi tahsil oluvchilarning ijodkorlik va kreativ fikrlash qobiliyatlarining davomli yo'qolib borishiga olib kelmoqda.

So'nggi yillar mobaynida olib borilgan qator tadqiqotlar natijasi ham baholash tizimining rasmiyligi yoshlar ong psixologiyasiga o'z salbiy ta'sirini ham ko'rsatayotganini tasdiqlagan. Xususan, ular tomonidan o'rganilayotgan har bir bilim ma'lum bir qisqa muddat ichida unutilishining ham asl sabablaridan biri bu baholash tizimining to'g'ri tartibda olib borilmayotgani deyishimiz mumkin. Tahsil oluvchilarda vaqt o'tishi natijasida, bilim olishga bo'lgan qiziqishning so'nib borishi va dars jarayonlariga ham interaktiv yondashmaslik muammolarining yuzaga kelishida ular onggiga singan baholash tizimiga bo'lgan salbiy munosabat masalasidir. Ayrim manbalarda keltirilishicha, 2021-yilda o'tkazilgan so'rovnomada boshlang'ich sinf o'quvchilarining 47 % i baho tufayli darsga qiziqishi pasayganini bildirgan. Shu bilan bir qatorda, 2022-yilda Milliy pedagogika universiteti tadqiqoti: baholash tizimining subyektivligi kichik yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, degan xulosani keltirib o'tishgan.

Insonning zamon talabiga javob beradigan shaxs bo'lib shakllanishida, so'zsiz uzluksiz rasmiy ta'lim-tarbiya etakchilik qiladi.

O'z navbatida, inson muammosi bilan shug'ullanuvchi faylasuflar, zamona talabiga javob beruvchi kishi ijtimoiy sifatlarini yaratib beradilar. Ular yaratgan siymo shu hududning muayyan vaqti uchun komil inson fazilatlarini hisoblanadi.

Zamon talabiga javob beruvchi insonning ijtimoiy sifat ko'rsatkichlari ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchilar uchun umumiy metodologik asosning birinchi qismini tashkil qiladi [1.65-bet]. Demak, bugungi zamon yoshlarini bilim olishga to'g'ri yo'naltirishda, komil inson sifatida etishtirishda ularning bilim saviyasini, fikrlash oqimini, ong tasavvurini, ijodkorlik qobiliyatini va shaxsiy xarakterini ham hisobga

olishimiz kerak. Va bu jarayonni to'g'ri va tizimli yo'lga qo'yishda baholash tizimining to'siq bo'lolmasligini targ'ib qilishda o'qituvchilardan quyidagi masalalarga jiddiy e'tibor qilish talab etiladi:

✓ o'quvchi va talabalarga bahoning nisbiy tushuncha ekanligini bosqichma-bosqich singdirib borish;

✓ tahsil oluvchilarning bilim va malakalarini baholashda raqamli baholash tizimi bilan birgalikda verbal munosabatdan ham to'g'ri va o'rinli foydalanishni yo'lga qo'yish;

✓ baho uchun emas, bilim uchun o'qish g'oyasini ta'lim oluvchilar ongiga singdirish.



Agar biz yuqoridagi masalalarni hal qilishga jiddiy e'tibor bilan yondashadigan bo'lsak, maqsadga muvodiq bo'ladi. Va buning natijasida, o'quvchi yoshlar ongida baho uchun emas, balki haqiqatdan ham ta'lim dargohlariga o'zlari uchun yangilik bo'lgan nimanidir o'rganib ketish uchun har darsni intizorlik bilan kutib, interaktiv yondashishga harakat qiladigan bo'lishadi.

O'zbekiston ta'lim tizimini tashkil etishda, odatda, an'anaviy ta'lim shaklini joriy etish keng yo'lga qo'yilgan. Va bu jarayon natijasida har bir dars bir xil tarzda, ya'ni etakchi rol o'qituvchi qo'l ostida bo'lib qolmoqda.



Singapur ta'lim tizimini tashkil etishda esa, aksincha. Ya'ni o'qituvchi o'z dars jarayonini tashkil etishda o'quvchilarning o'zini erkin tutishi, fikrlarini istagan vaqtda ochiq va aniq ifoda eta olishini asosiy maqsad qilib belgilab olishga diqqat qaratadi.

Bolalarni ruhiy intellektual tayyorgarligi asosida maktabga qabul qilish shunday masalalardan biridir. Keyingi paytda olti, etti

yoshga kirgan barcha bolalarni yoppasiga maktabga qabul qilish an'anaga aylangan. Psixologlar esa hech qachon ishni bunday tartibda hal etishga yo'l qo'ymagan bo'lar edilar. Sababi, har bir bola ham aqliy, ham jismoniy jihatdan o'ziga xos individual imkoniyatlarga ega: ba'zi bolalar olti, etti, hatto sakkiz yoshga to'lsalar-da, ta'limni boshqa tengdoshlari qatori o'zlashtirishga tayyor bo'lmaganlar. Biz esa ularni maktab rejasiga, ba'zan esa ota-onasining xohishiga qarab, maktabga qabul qilaveramiz. Natijada bola ruhiy jihatdan turli kasalliklarga yo'liqishi mumkin. Bu esa bolaning aqliy va intellektual jihatdan tabiiy rivojlanishi ildiziga bolta urish demakdir [2.45-bet]. Shunday ekan dars jarayonlarini tashkil etishda, o'quvchi va talabalarning ijodiy va kreativ fikrlashi uchun shart-sharoitlar etarlicha yaratib berilishi kerak. Agar biz tahsil oluvchi yoshlar onggiga baholash tizimining nisbiy tushuncha ekanligini singdirishni uddasidan chiqsa, ular o'rtasidagi raqobat yo'qoladi va jamoaviylik tushunchalari ham kengayib boraveradi.

Xalqaro tajribalarga tayanadigan bo'lsak, Finlyandiya, Yaponiya va Kanada kabi mamlakatlarda boshlang'ich sinflarda an'anaviy baho yo'q – bolalar PSLE asosida baholanadi. Bu tajribani O'zbekiston sharoitiga moslashtirish mumkin. Jumladan, "Finlyandiya ta'limi dunyodagi eng yaxshi ta'lim tizimlarining birinchi beshligiga kiradi. Mamlakatdagi maktablar asosan davlat maktablari bo'lib, ularda ta'lim sifati darajalariga yagona talab qo'yilgan.

O'quvchilik yillari	O'quv yili	Ta'lim bosqichlari	Baholash mezonlari	Kundalik va uyga vazifa
7 yoshdan 16-18 yoshgacha	8-16- avgustdan may oyining oxirigacha. 3 semestr ga ajratilgan 5 ta ta'til	Tayyorlov sinflar, quyi pog'ona maktabi, yuqori pog'ona maktabi, litseylar. Hammasi bo'lib 12-13 sinf.	10 balli. 7- sinf gacha og'zaki, bilvosita qoniqarli, yaxshi, a'lo. 1- 3-sinf gacha o'quvchi	Qog'oz ko'rinishda kundalik mavjud emas, hamma ma'lumotlar davlat elektron sistemasida, uyga vazifa

			baholanmaydi.	kamdan-kam beriladi.
--	--	--	---------------	-------------------------

O'quvchilar qobiliyatiga, o'zlashtirishiga qarab tabaqalashtirilmaydi. Har bir o'quvchi bilan alohida, individual ta'lim va rivojlanish rejasi asosida shug'ullaniladi. Shu sababli bir sinfda o'qiydigan o'quvchilarga turli qiyinlikdagi vazifalarni bajarishi topshirilishi mumkin. O'quvchilar olgan baholar sir saqlanadi. O'quvchilarni bir-biri bilan qiyoslash taqiqlangan" [3.390-391-betlar]. Bizning mamlakatimizda ham kichik-kichik sinflar kesimida, maktablar kesimida va tumanlar kesimida ushbu tizimni tajribadan o'tkazib ko'rishimiz maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lar edi. Shuningdek, ta'lim jarayonini tashkil etishda tahsil oluvchi o'quvchilarning ota-onasi bilan muntazam aloqalar yo'lga qo'yilishi lozim. Shu yo'l orqali o'qituvchi o'quvchilarning nimaga ko'proq qiziqishini o'rganishga va unga shu yo'sinda to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatish imkoniyatiga ham ega bo'lgan bo'lar edi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishimiz kerakki, har bir ilm o'rganish yo'liga yangi kirib kelgan o'quvchi yangi ekilgan yosh niholga o'xshaydi. Bu niholning kelajakda o'sib-ulg'ayib, ulkan va ko'rkli daraxt bo'lishida ham, yoki voyaga etmasdan so'lib sinadigan, boshqalarning qo'lida tayoq vazifasini o'taydigan quruq bir yog'och bo'lishida ham nafaqat o'qituvchilarning, balki oila va ijtimoiy muhitning ham ta'sir doirasi kuchli va nazardan chetda qoldirilmasdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bo'ri Ziyomhammadov. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: TIB-KITOB, 2009. – 184 b.
2. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. – Toshkent: ILM-ZIYO, 2009. – 192 b.
3. X.Ibraimov, M.Quronov. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Sahnof, 2023. – 390-391 b.
4. O'.M.Asqarova, M.Xayitboyev, M.S.Nishonov. Pedagogika. – Toshkent: Talqin, 2008. – 288 b.